

**REKLAMA XIZMATI KO'RSATISH TO'G'RISIDA
SHARTNOMA**

Farg'onan viloyati

Nº _____

"__" _____

Reklama va buyurtma qabul qilish asosida faoliyat yurituvchi "**Media Maorif**" MCHJ, keyingi o'rirlarda "**Ijrochi**" deb yuritiluvchi bir tomondan, hamda _____, keyingi o'rirlarda "**Buyurtmachi**" ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi Buyurtmachiga reklamani tayyorlash yoki tarqatishga oid xizmatlar ko'rsatish (keyingi o'rirlarda "xizmatlar" deb yuritiladi), buyurtmachi esa ushbu xizmatlarni qabul qilib olish va uning haqqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Xizmatlarning aniq turlari, ularning soni (miqdori, hajmi), sifati va narxi, shuningdek, ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi, reklama tahririyatning Teleram kanali, Instagram sahifasi, xalqtaliminfo.uz sayti yoki YouTube sahifasigaga joylanadi.

1.2. Ijrochi o'z majburiyatlarini reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari, Buyurtmachi topshirig'ining mazmuni, uning badiiy va estetik (xizmat sifati) talablariga muvofiq, aniq, o'z vaqtida va to'liq (lozim darajada) bajarishi shart.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Buyurtmachining huquqlari:

2.1.1. Ijrochidan reklamani tarqatish uchun tayyor shaklga keltirish va (yoki) tarqatish bo'yicha majburiyatlarini bajarishni talab qilish;

2.1.2. Reklama qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha ijrochidan ma'lumot berishini talab qilish;

2.1.3. Ijrochining faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtida ishning borishi va sifatini tekshirish;

2.1.4. Xizmatlarning bajarilgan qismi bo'yicha to'lovni amalga oshirish sharti bilan shartnomani bekor qilishni talab qilish.

2.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

2.2.1. Ijrochining talabiga binoan reklama axborotining haqiqiyligi va ishonchliligin tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

2.2.2. Agar buyurtmachining faoliyati litsenziyalanishi yoki mahsuloti sertifikatlashtirilishi zarur bo'lsa, mahsulotni yoki Reklama beruvchining o'zini reklama qilayotganda tegishli litsenziya yoki sertifikatni taqdim etish;

2.2.3. Reklama asarini yaratish va (yoki) reklama axborotini tarqatish bo'yicha Ijrochiga topshiriq berish;

2.2.4. Shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda xizmatlar haqini to'lash;

2.2.5. O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

2.3. Ijrochining huquqlari:

2.3.1. Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda Buyurtmachidan tegishli litsenziya, sertifikat hamda reklama axborotining haqiqiyligi va ishonchliligin tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

2.3.2. Buyurtmachidan reklamani tayyorlash va (yoki) tarqatish bo'yicha topshiriqni talab qilish;

2.3.3. Shartnomaning bajarilishi munosabati bilan Buyurtmachi belgilangan haq va boshqa summani to'lamagan taqdirda, Buyurtmachidan tegishli summani to'laganga qadar unga tegishli ashyolarni ushlab qolish;

2.3.4. Buyurtmachidan xizmatni qabul qilib olishini talab qilish;

2.3.5. Reklama xizmati uchun Buyurtmachidan oldindan avans to'lovini to'lashni talab qilish.

2.4. Ijrochining majburiyatlari:

2.4.1. O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan reklama faoliyati va homiylik qoidalari hamda reklama faoliyatining professional ishtirokchisi kasb etikasiga so'zsiz rioya qilish;

2.4.2. Axborot yoki boshqa materiallarni bergen shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligidan oshkor qilmaslik;

2.4.3. Buyurtmachi qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan axborot bergen taqdirda uni bu haqda o'z vaqtida xabardor qilish;

2.4.4. Xizmat sifati talablariga rioya qilish, ishni sifatli bajarish;

2.4.5. Buyurtmachiga reklama xizmati ko'rsatish jarayonining borishini tekshirish uchun shartsharoit yaratib berish.

3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaga ko'ra xizmatlar **bahosi** _____ (_____) so'mni tashkil etadi. Ushbu shartnoma tarkibidagi xizmat turlarining narxi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilovada ko'rsatiladi.

3.2. Ko'rsatilgan xizmatlar haqi namuna shaklidagi dastlabki reklama materiallari (reklama dasturi) Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng o'zgartirilishi mumkin emas.

4. XIZMAT KO'RSATISH MUDDATLARI

4.1. Ijrochi uning hisob raqamiga dastlabki to'lov kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida buyurtmachining topshirig'ini bajarishga kirishib, topshiriq yuzasidan namuna shaklidagi dastlabki reklama materiallari (reklama dasturi)ni Buyurtmachining tasdig'iga havola qiladi.

4.2. Xizmat ko'rsatish muddatlari (boshanishi, ketma-ketlikdagi navbat va tugallanishi) shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada ko'rsatiladi.

5. SHARTNOMANING BAJARILISHI

5.1. Shartnoma mazkur shartnoma, reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq bajarilishi lozim. Agar taraflar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

5.2. Xizmatlar qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana xizmatlar uchun haq to'lash bo'yicha buyurtmachi majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

5.3. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan oldin ko'rsatilishi mumkin.

5.4. Buyurtmachi muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

5.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita buyurtmachining mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan xizmatlar miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi. Dalolatnoma reklama asari topshirilgan yoki oxirgi reklama axboroti tarqatilganidan keyin ko'pi bilan keyingi kundan kechiktirmasdan taraflar tomonidan imzolanishi lozim. Buyurtmachi dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda ushbu muddat ichida ijrochiga asoslantirilgan rad javobini yozma ravishda bildirishi lozim.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Mazkur shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor shaxs O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi, Qonuniga muvofiq javobgar bo'ladi.

6.2. Ijrochi reklama axborotining haqqoniyligi va ishonchliligi, reklama qilinadigan mahsulot (ish, xizmat) sifati, shuningdek, Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki reklama materialining dizayni va undagi kamchiliklar uchun javob bermaydi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

7.1. Shartnoma taraflar imzolaganidan boshlab kuchga kiradi va _____ kungacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma quyidagi holatlarda buyurtmachi tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

- buyurtmachi roziligesiz reklama matnini o'zboshimchalik bilan tarqatish;
- xizmatlarni o'z vaqtida bajarmaslik.

- xizmat sifati badiiy va estetik jihatdan Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki reklama materiallariga muvofiq bo'lмаган hollarda;

- xizmat ko'rsatish muddatlari ketma-ketligining buzilishi xizmat ko'rsatishning oxirgi muddati doirasidan chetga chiqib ketishi yoki mazkur muddatda uning bajarilishiga jiddiy to'sqinlik qilishiga olib kelgan holatlarda.

7.3. To'lovlar mazkur shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshirilmagan, to'lovni kechiktirish muddati 30 ish kunidan oshib ketgan hollarda Ijrochi shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etihshini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslari, benefisiari va shartnomani amalga oshirishdagi hamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga, davlat xizmatchilariga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlaming oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (electron pochta orqali: anticorruption@uks.uz) yoki ishonch telefoni (+9978-150-26-03) orqali xabardor qilish majburyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption havf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

8.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilingan tomonga yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishga xaqli emas.

9. NIZOLARNI HAL ETISH

9.1 Mazkur shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq taraflarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudida ko'rib chiqiladi.

TARAFLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

Ijrochi:

Buyurtmachi:

| | |
|---|---|
| "Media Maorif" MCHJ INN: 550677409 Manzil: Farg'ona viloyati, Qo'shstepta tumani, Shohimardon ko'chasi, 28-uy. H/R: 20208000107022137001 MFO: 00997 STIR: 310831678 Bank: "IPOTEKA-BANK" ATIB Tel: (+99877) 271-79-90 | " _____ " MCHJ Manzil: _____. H/R: _____ MFO: _____ STIR: _____ Bank: _____ Tel: _____ Buyurtmachi: _____ |
| Ijrochi: _____ U.Po'latov | |

_____ yildagi №_____-sonli reklama
xizmati ko'rsatish to'g'risida
shartnomaga
ILOVA

Xizmatlarning aniq turlari, ularning soni (miqdori, hajmi), sifati va narxi, shuningdek, ularni ko'rsatish muddatlari

| | Xizmat nomi | Soni | Narxi (so'mda) | Muddat |
|---|--|-------------|---------------------------|-----------------------------|
| 1 | @xalqtaliminfo kanali uchun reklama posti | 3 | _____ | Shartnoma tugash davrigacha |
| | | | | Jami: _____ so'm |

Ijrochi: _____

Buyurtmachi: _____